KORXONALARNI BO‘LISH VA AJRATIB CHIQARISHDA XUSUSIY KAPITAL ELEMENTLARINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
“Saturn Metal Qayta Ishlash” MCHJ bosh buxgalteri, PhD
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korxonalarni bo‘lish va ajratib chiqarish jarayonlarida xususiy kapital elementlarini hisobga olish va taqsimlash masalalari tadqiq etilgan. Xususiy kapital tarkibiy qismlarini alohida hisobga olish, ularni aktiv va majburiyatlar bilan muvofiqlashtirish hamda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *korxonalarni qayta tashkil etish, bo‘lish, ajratib chiqarish, xususiy kapital, kapitalni taqsimlash, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы учета и распределения элементов собственного капитала при разделении и выделении предприятий. Разработаны предложения по раздельному учету компонентов собственного капитала, их согласованию с активами и обязательствами, а также отражению в финансовой отчетности на основе международных стандартов.*

Ключевые слова: *реорганизация предприятий, разделение, выделение, собственный капитал, распределение капитала, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международные стандарты.*

Abstract. *The article examines the accounting and allocation of equity components in the division and spin-off of enterprises. Proposals are developed for separate accounting of equity components, their alignment with assets and liabilities, and their presentation in financial statements based on international standards.*

Keywords: *enterprise reorganization, division, spin-off, equity, capital allocation, accounting, financial reporting, international standards.*

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor mexanizmlarining rivojlanishi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining takomillashib borishi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-sonli “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu qaror doirasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, moliyaviy axborotning shaffofligi va ishonchliligini oshirish hamda manfaatdor foydalanuvchilar, xususan, investorlarni sifatli axborot bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining kengayishi sharoitida korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarining ahamiyati ham ortib bormoqda. Xususan, qayta tashkil etishning bo‘lish shakli korxona faoliyatining ayrim yo‘nalishlarini mustaqil subyektlar sifatida shakllantirish, mavjud aktiv va majburiyatlarni qayta taqsimlash hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2025-yillarda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar sonining qariyb 29–30 foizga ko‘payishi mamlakat iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibining kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar statistik ko‘rsatkichlar tadqiqida ham o‘z aksini topmoqda. Amaliyotda aktiv va majburiyatlar asosan dastlabki yoki qoldiq qiymat bo‘yicha baholanmoqda, bu esa xalqaro standartlar (MHXS 3, MHXS 13) talablarida nazarda tutilgan adolatli qiymat baholash amaliyotining to‘liq joriy etilmaganini ko‘rsatadi. Natijada, qayta tashkil etilgan korxonalarning moliyaviy hisobotlarida aktivlarning real bozor qiymati va gudvill elementlari to‘laqonli aks ettirilmayapti.

1-jadval.

Xususiy kapital elementlarining mazmuni va ahamiyati[7]

№	Xususiy kapital elementi	Mazmuni	Qayta tashkil etishdagi ahamiyati
1	Ustav kapitali	Ta’sischilar yoki aksiyadorlar tomonidan kiritilgan ulushlar qiymati.	Yangi yoki voris korxonalarning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan kapital asosini shakllantiradi.

[7] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

2	Qo‘shimcha kapital	Emissiya daromadi, qayta baholash natijalari, bepul olingan aktivlar yoki boshqa kapital qo‘yilmalar.	Qayta tashkil etishda kapitalning manbalar bo‘yicha tarkibini aniqlashda muhim.
3	Rezerv kapitali	Qonunchilik yoki ta’sis hujjatlari asosida shakllantirilgan zaxiralar.	Voris korxonalarga o‘tkazilishi yoki qayta shakllantirilishi lozim bo‘lgan kapital elementi.
4	Taqsimlanmagan foyda	Oldingi yillar va hisobot davrida taqsimlanmagan sof foyda.	Mulkdorlar ulushi, dividend siyosati va yangi korxona moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiladi.
5	Qoplanmagan zarar	Korxonaning jamg‘arilgan zararlari.	Voris korxonalar sof aktivlarini kamaytiradi va kapital yetarliligiga ta’sir qiladi.
6	Qayta baholash natijalari	Aktivlar haqqoniy qiymatda baholanishi natijasida yuzaga kelgan kapitaldagi o‘zgarishlar.	Taqsimlash balansida aktivlar bilan bog‘langan holda taqsimlanishi lozim.

Korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarida buxgalteriya hisobining muhim obyektlaridan biri xususiy kapital hisoblanadi. Chunki xususiy kapital korxonaning mulkiy manbalari, mulkdorlar ulushi hamda faoliyat natijasida shakllangan iqtisodiy resurslar to‘g‘risidagi axborotni o‘zida mujassam etadi. Qayta tashkil etishning bo‘lish, ajratib chiqarish, qo‘shib yuborish, qo‘shib olish va qayta tuzish shakllarida aktivlar va majburiyatlar bilan bir qatorda xususiy kapital elementlarining ham voris subyektlar o‘rtasida taqsimlanishi amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda hamda qayta baholash natijalarini to‘g‘ri taqsimlash va hisobda aks ettirish voris korxonalarning boshlang‘ich moliyaviy holati hamda kapital tuzilmasining haqqoniy shakllanishini ta’minlaydi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda axborotning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va investorlar hamda boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun foydaliligini oshiradi. Fikrimizcha, mazkur yondashuv qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobot nuqtai nazaridan chuqur tizimlashtirishga, ularning barcha bosqichlarini yagona metodologik asosda aks ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u korxonalar o‘rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlashni moliyaviy jihatdan to‘g‘ri va asoslangan holda ifodalash, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash hamda ularni hisobda aniq aks ettirish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi(1-jadval).

Quyidagi jadval ma’lumotlari qayta tashkil etish jarayonlarida xususiy kapital elementlarini hisobga olish va taqsimlashda bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda ko‘p hollarda alohida emas, balki umumiy summa sifatida taqsimlanadi. Shuningdek, kapital elementlarining aktivlar va majburiyatlar taqsimoti bilan o‘zaro bog‘liqligi yetarli darajada ta’minlanmaydi, qayta baholash natijalari esa alohida aks ettirilmaydi. Bundan tashqari, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar va rezerv kapitalini voris korxonalar o‘rtasida taqsimlash mezonlarining aniq belgilanmaganligi hamda hisobotlarda kapital tarkibidagi o‘zgarishlarning to‘liq ochib berilmasligi moliyaviy axborotning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2-jadval.

Qayta tashkil etish jarayonlarida xususiy kapital elementlarini hisobga olish va taqsimlashning asosiy muammolari

№	Muammo	Mazmuni	Oqibati
1	Xususiy kapital umumiy summada taqsimlanadi	Ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv va taqsimlanmagan foyda alohida tahlil qilinmaydi.	Voris korxonalar kapitali tarkibi noto‘g‘ri shakllanadi.
2	Aktiv va majburiyatlar bilan bog‘liqlik ta’minlanmaydi	Kapital elementlari aktivlar va majburiyatlar taqsimoti bilan bog‘lanmasdan taqsimlanadi.	Sof aktivlar va xususiy kapital o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi.
3	Qayta baholash natijalari alohida ajratilmaydi	Aktivlar qayta baholanganda yuzaga kelgan farqlar kapital tarkibida to‘g‘ri aks ettirilmaydi.	Baholash farqlari va kapital o‘zgarishi aralashib ketadi.
4	Taqsimlanmagan foyda va qoplanmagan zarar taqsimoti noaniq	Ularni qaysi voris korxonaga va qanday mezon asosida o‘tkazish aniq belgilanmaydi.	Mulkdorlar manfaatlari va dividend huquqlarida nizolar yuzaga kelishi mumkin.
5	Rezerv kapitali bo‘yicha yondashuv yetarli emas	Rezervlarning maqsadli xususiyati va ularni voris korxonalarga o‘tkazish tartibi aniqlanmaydi.	Zaxiralardan foydalanish va kapital barqarorligida muammo yuzaga keladi.
6	Hisobotda ochib berish to‘liq emas	Qayta tashkil etish natijasida xususiy kapital tarkibi qanday o‘zgargani izohlarda ko‘rsatilmaydi.	Hisobot foydalanuvchilari kapital o‘zgarishlarini baholay olmaydi.

Shu bois mazkur masalalarni uslubiy jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tugatilayotgan korxona uchun avval tugatish balansi, so‘ngra taqsimlash balansi tuziladi. Taqsimlash balansi orqali barcha uzoq va qisqa muddatli aktivlar, ustav kapitali, zahiralar, taqsimlanmagan foyda va

majburiyatlar yangi tashkil etilgan subyektlar o‘rtasida belgilangan tartibda taqsimlanadi. BHMS 23 talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur standart qayta tashkil etish jarayonida aktivlar va majburiyatlarni baholash hamda ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydi. Biroq, milliy standartning amaldagi shakli xalqaro standartlar, ya’ni MHXS 3 “Biznes birlashuvlari” bilan to‘liq uyg‘un emas. Shu bois qayta tashkil etish jarayonlarini xalqaro mezonlar asosida yanada takomillashtirish dolzarb hisoblanadi(3-jadval). Qayta tashkil etishning bo‘lish shaklidagi jarayonda amaldagi korxona faoliyati to‘xtatilib, uning barcha huquq va majburiyatlari yangi tashkil etilgan mustaqil subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

3-jadval.

Xususiy kapital elementlarini taqsimlashning uslubiy tamoyillari

№	Tamoyil	Mazmuni
1	Sof aktivlar bilan muvofiqlik tamoyili	Voris korxonaga o‘tadigan xususiy kapital summasi unga o‘tadigan sof aktivlar qiymati bilan muvofiq bo‘lishi kerak.
2	Kapital elementlari bo‘yicha ajratish tamoyili	Ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda alohida taqsimlanishi lozim.
3	Mulkdorlar ulushini saqlash tamoyili	Ta’sischilar yoki aksiyadorlar ulushi qayta tashkil etish hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishi yoki qayta hisoblanishi kerak.
4	Hujjatli asoslanganlik tamoyili	Kapital taqsimoti taqsimlash balansi, o‘tkazish dalolatnomasi, ta’sis hujjatlari va qarorlar bilan tasdiqlanishi lozim.
5	Qayta baholash natijalari bilan bog‘liqlik tamoyili	Qayta baholashdan yuzaga kelgan farqlar tegishli aktivlar taqsimoti bilan bog‘liq holda aks ettirilishi kerak.
6	Hisobotda shaffof ochib berish tamoyili	Xususiy kapital tarkibidagi barcha o‘zgarishlar moliyaviy hisobot izohlarida ochib berilishi lozim.

Bu jarayon huquqiy jihatdan vorislik prinsipiga, iqtisodiy jihatdan aktivlar va majburiyatlarning adolatli taqsimotiga, buxgalteriya nuqtai nazaridan esa moliyaviy izchillik va aniqlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu jarayonda tugatilayotgan korxona uchun avval tugatish balansi (likvidatsiya balansi) tuziladi. Uning asosiy vazifasi korxonaning tugatilish vaqtidagi moliyaviy holatini aniqlash, ya’ni aktivlar, kapital va majburiyatlarning to‘liq hajmini hisobga olishdir. Yangi tashkil etilgan subyektlar o‘rtasida belgilangan tartib va mezonlar asosida taqsimlanadi. Bu mezonlar odatda ishtirokchi ulushi, faoliyat sohasi yoki investitsiya hissasiga qarab belgilanadi. Taqsimlash balansida har bir yangi korxonaga tegishli aktivlar va majburiyatlar aniq ko‘rsatilib, ularning moliyaviy qiymati bilan birga adolatli qiymati ham keltiriladi. Bu hisobotning haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bozor qiymati bilan buxgalteriya qiymati o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa, ushbu farq gudvill yoki salbiy gudvill sifatida tan olinadi.

korxonalarni bo‘lish va ajratib chiqarish jarayonlarida xususiy kapital elementlarini to‘g‘ri taqsimlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda faqat aktivlar va majburiyatlarning taqsimlanishi bilan cheklanib qolmasdan, ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar va qayta baholash natijalarining ham alohida tartibda hisobga olinishi zarur.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, amaliyotda xususiy kapital elementlarining umumiy summa ko‘rinishida taqsimlanishi, ularning aktiv va majburiyatlar taqsimoti bilan o‘zaro bog‘liqligining yetarli darajada ta’minlanmasligi, qayta baholash natijalarining alohida aks ettirilmasligi hamda taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar va rezerv kapitalini voris korxonalar o‘rtasida taqsimlash mezonlarining aniq belgilanmaganligi muhim uslubiy muammolardan hisoblanadi. Bunday holatlar voris korxonalarning dastlabki kapital tuzilmasini haqqoniy shakllantirish va moliyaviy axborotning taqqoslanuvchanligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Korxonalarni bo‘lish va ajratib chiqarishda xususiy kapitalni taqsimlashni sof aktivlar bilan muvofiqlik, kapital elementlari bo‘yicha alohida ajratish, mulkdorlar ulushini saqlash, hujjatli asoslanganlik, qayta baholash natijalari bilan bog‘liqlik va moliyaviy hisobotda shaffof ochib berish tamoyillari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu tamoyillar kapital taqsimotining izchilligi va asoslanganligini ta’minlash bilan birga, voris korxonalarning moliyaviy holatini aniq ifodalash imkonini beradi. Fikrimizcha, xususiy kapital elementlarini taqsimlashda har bir kapital tarkibiy qismini aktivlar va majburiyatlarning tegishli taqsimoti bilan uzviy bog‘lash lozim. Bunda tugatish balansi va taqsimlash balansi ma’lumotlari asosida har bir voris korxonaga o‘tkaziladigan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlari o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Ayniqsa, aktivlarni qayta baholash natijasida yuzaga keladigan farqlarni alohida aniqlash va ularni tegishli kapital elementi bilan bog‘liq holda aks ettirish moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son qarori «Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida».
19. IFRS 3 «Business Combinations». IFRS Foundation. – 2024.
20. IFRS 13 «Fair Value Measurement». IFRS Foundation. – 2024.
21. IAS 36 «Impairment of Assets». IFRS Foundation. – 2024.
22. Urazov K.B., Abdurasulov J.A. Biznesni birlashtirishni amalga oshirish sharoitida hisob va hisobotning konseptual masalalari. – Samarqand, 2022. – 64 b.
23. Безвидная О.С. Бухгалтерский учет и отчетность в условиях реорганизации. – М., 2019.
24. Плотников В.С., Плотникова О.В. Бизнес-комбинации и гудвилл в МСФО. – М.: Финансы и статистика, 2020.
25. Xudaynazarova D.G. Farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari // Symposium on Advanced Studies and Future Directions. International Multidisciplinary Research Conference. – Barcelona, 2025. – B. 92–100.
26. Boronov B.F. Yog‘-moy sanoati korxonalarida xarajatlar tarkibi va ularning hisobini takomillashtirish // Moliya. – Toshkent, 2022. – №5. – B. 61–67.
27. Onorboev Sh. Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar va ularni tashkil etish xususiyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2026. – May. – B. 114–125.
28. Boronov B.F. Yog‘-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 244 b.
29. Urazov K.B., Boronov B.F. Respublika oziq-ovqat sanoatida yog‘-moy mahsulotlarining ahamiyati va turlari // Ekonomika i sotsium. – 2022. – №6-2 (97). – B. 714–719.
30. Boronov B.F. Yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari hisobining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish // ISSN 2181-3191. – 2022. – T. 1. – №7. – B. 202–284.